



## “OTMAGAY TONG” MUSIQIY ASARINING BADIY VA IFODAVIY TAHLILI.

*Mamadaliyeva Nozima Alisher qizi*

*Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy – gumanitar fanlar fakulteti*

*Musiqqa ta’limi yo’nalishi 1-bosqich talabasi*

*Annotatsiya. O’zbek an’anaviy xonandalik san’ati ko’p asrlik tarixiy yo’lni bosib o’tgan holda, zamonlar osha sayqal topib kelayotgan o’lmas ma’naviy merosdir. Maqolada xalq shoiri Sobir Abdulla va atoqli bastakor To’xtasin Jalilov tomonidan yaratilgan “Tohir va Zuhra” musiqali drammasi va “Otmagay tong” duetining yaratilish tarixiga oid ma’lumotlar bayon etiladi.*

**Kalit so’zlar:** *Musiqali drama, bastakor, duet.*

*Annotation. The art of traditional Uzbek singing is an immortal spiritual heritage that has passed the centuries-old historical path and is becoming more and more beautiful. Information about the history of the creation of the musical drama "Tahir and Zuhra" and the duet "Otmagay tong" created by Jalilov will be presented.*

**Key words.** *Musical drama, composer, duet.*

### Kirish

“Otmagay Tong” dueti “Tohir va Zuhra” musiqali dramasida ijro etilgan. “Tohir va Zuhra” musiqali dramasini 1939-yilda O’zbekiston xalq shoiri taniqli yozuvchi va dramaturg Sobir Abdulla va sozanda, bastakor To’xtasin Jalilov tomonlaridan yaratilgan.

Sobir Abdullaning teatr dramaturgiyasiga kirib kelishi dastlab 1931-1936 yillari Andijon viloyat musiqali drama va komediya teatrida boshlagan. U aynan shu jamoada



T. Jalilov bilan ijodiy hamkorlik qiladi. Sobir Abdulla o'z talqinida pokiza lekin fojiali muhabbat mavzusi, jamiyatdagi zulm va adolatsizlikka qarshi kurash voqealarini jonlantiradi. Xususan, Tohir va Zuhraning his-tuyg'ularini, orzu va umidlarini hattixarakteratlarini O'zbek musiqiy san'atining yirik namoyondasi mashhur bastakor T. Jalilov xalqchil uslubda, go'zal va maftunkor musiqa namunalari orqali aks ettiradi. Musiqali dramada qahramonlarning shoirona tabiati, oddiy va samimiyligi, taqdirlarning murakkabligi musiqiy jihatdan xalqchil uslubga tayanilgan holda badiiy barkamol tarzda amalga oshirilgan. Uni har bir tomoshabin hayajon bilan kuzatadi maroq bilan tinglaydi. Avvalambor spektakldagi go'zal, dilkash ariya, qo'shiq va ashulalarni mohirona bastalagan atoqli bastakor, sozanda va ustoz musiqali dramalar "Otaxoni" To'xtasin Jalilovni tilga olishimiz shart, albatta. Zero, uning ijodiy merosi xalq musiqasi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan holda aynan ushbu janrning gullab-yashnashida ulushi katta bo'ldi.

"Tohir va Zuhra" musiqali dramasi ilk sahna taqdimoti 1939 yilda Farg'ona viloyati musiqali drama teatrida o'tkazilgani ma'lum odatdagidek, "Tohir va Zuhra" musiqali dramasi ham uvertyura bilan boshlanadi. Uning ogir vazmin sur'ati, minorli mayus jarangi bosh qahramonlarning armonli muhabbati haqida tinglovchiga hikoya qilgandek bo'ladi. Jo'rlik ostida raqqosalar paydo bo'ladi. Raqs harakati uchun uvertyura fakturasining akkordli davomiyligi mos keladi. Avvaliga violonchellarda kuy yangraydi so'ng royal cholg'usida tanish ohanglar tarala boshlaydi. Uvertyuraning bosh mavzusi uchun T. Jalilov bastalagan "Otmagay tong" dueti ijro etiladi. So'zlari qahramonlarning his-tuyg'ularini ifoda qilib bergan

Otmagay tong bog' aro azming xiromon bo'lmasa,

Bulbuli shaydolarining gulshanda nolon bo'lmasa.

Qaydin ishq o'tiga davo aylasun parvonalar,

Parpirab bag'rin yoquvchi shami jonon bo'lmasa



Shamidek kuygay hamisha jismu jonim,men netay,

Birgina parvona ham qoshing'a mehmon bo'lmasa.

Sanchaber so'zdin tikonlar ko'ksima,ey g'uncha lab,

Na qilay bu jonnikim yo'lingda qurbon bo'lmasa.

Asar sokin lirik xarakterga ega bo'lib,kuyning ohangga boyligi bilan ajralib turadi.Farg'ona-Toshkent hududiga hos katta ashula janrida yozilgan.Benazir bastakor musiqasining syujet voqealari ruhiga uyg'unligi,ta'sir kuchining o'tkirligi bilan e'tiborga loyiqdir.

O'zbekiston xalq artisti,Farg'onalik aktyor Fayzulla Axmedov ushbu spektaklning zahmatkash ijodkorlari haqida xotirlab,shunday degan ekan "T.Jalilov va S.Abdullaning "Tohir va Zuhra"ustida ish olib borganlari hali hanuz yodimda barcha ijodkorlar S.Abdullaning bog'ida to'planishar domla matni yozib tursalar To'xtasin aka kuyini bastalab o'sha yerning o'zida ijrochilarga aytirib ko'rar edilar".Darhaqiqat,bu insonlarning qilgan mehnatlari samarasi "Tohir va Zuhra"musiqali dramasi xalq yuragidan chuqur o'rin egallaganligida ko'rinadi.

### **Xulosa**

"Tohir va Zuhra" kabi durdona sahna asarlarimiz ko'p yillar davomida nafaqat tomoshabinlarga estetik zavq bag'ishlovchi spektakl bo'lib qoladi,balki undagi jozibali,yorqin kuy va ashulalar yetishib kelayotgan san'atkorlarning ijroviy mahoratlarini mukammallashtiradi. "Otmagay tong" kabi musiqiy asarlarni yaratilish tarixini bilish va yaratilish zamirida mehnat yotganini anglashimiz asarga bo'lgan xurmat va e'tiborimizi oshiradi.



### Foydalanilgan adabiyotlar

1.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 3-jild "Davlat ilmiy nashriyoti" T.,2002

2.Karimov N. "Tohir va Zuhra" ning ijodkori //Yangi O'zbekiston.2021.30.01,21-  
son

3.Abdurahmonova M.Sobir Abdulla."Fan" nashriyoti,Toshkent1980

4.[http\\inashr.uz](http://inashr.uz)